

ADABIYOT DARSLARIDA SO‘Z TAKRORIGA ASOSLANGAN SHE‘RIY SAN‘ATLARNI TOPISHGA O‘RGATISH

Zakirova Maqsuda Atayevna

UrDU akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi.

Annotatsiya . Ushbu maqolada mumtoz shoirlar ijodidagi badiiy san‘atlarning ayrimlari haqida fikr yuritiladi, she‘rlardan ayrim misollar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: she‘riy san‘atlar, ishtiyoq, tasdir, tasbe, mukarrar (takrir), aks, tardi aks, raddi matla‘.

Ming yillik tarixga ega bo‘lgan mumtoz adabiyotimizda badiiyat masalasi hamisha she‘r ahlining diqqat markazida bo‘lib kelgan. U yoki bu ijodkor salohiyati haqida borganda uning nimalarni tasvirlagani emas, asosan, qanday tasvirlaganiga e‘tibor qaratilgan. Jumladan, adabiy asarlarda she‘riy san‘atlardan foydalanish mahorati hamma asrlarda badiiy san‘atkorlikning asosiy qirralaridan biri sifatida baholangan.

Ma‘lumki, she‘riy san‘atlar badiiy asarda ifodalangan fikrni hayotiyroq, ta‘sirchanroq ifodalanishiga, lirik va epik timsollarning yorqinroq gavdalanitirilishiga, misralar, baytlar, bandlarning lafziy nazokati, musiqiyli, jozibadorligini ta‘minlashga xizmat qilgan. U yoki bu shoir ijodiga, u yoki bu badiiy asarga baho berilar ekan, ijodkor ifodalayotgan iz aksini topgan ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-axloqiy, ma‘rifiy-tarbiyaviy muammolar mohiyati va ko‘lami, badiiy timsollar jilosi bilan bir vaqtda qo‘llangan she‘riy san‘atlarning rang-barangligi, mantiqiy asoslanishi, asar mazmunini ochishdagi o‘rni va ahamiyati kabi masalalarga ham alohida diqqat qilingan. ¹

¹T. Sobitova. “Navoiy ijodida badiiy san‘atlar” maqolasi.

Maqolada soʻz takroriga asoslangan sanʼatlar haqida toʻxtalib oʻtamiz.

Soʻzlar takrori sheʼriyatda, ayniqsa, fikriy siqqlik omilidir. Biroq oʻrni bilan takrorlangan soʻzlar koʻpincha badiiy taʼsirchanlikning, gʻoyaviy baquvvatlikning ham muhim sharti boʻla oladi. Sharq poetikasida shuning uchun ham soʻzlar takroriga oid bir qancha sanʼatlar vujudga kelgan. Bulardan eng muhimlari ishtiyoq, tasdir, tasbe, mukarrar (takrir), aks, tardi aks, rad sanʼatlaridir.²

Ishtiyoq (soʻzdan soʻzni ajratmoq). Baytda oʻzakdosh soʻzlarni qoʻllash sanʼati.

Qilsa **zulum** ul **zolim** elni qilmagʻil yorab zabun

Chun **tazallum**dur ishin doim meni **mazlum** qil. (Navoiy)

Gul kabi **gulgun** yonib **gulshan** aro **Gulchehr**alar,

Gul uzib, oʻynar qoʻyib **gulga** bino **Gulchehr**alar. (E. Vohidov)

Tasdir – badiiy sanʼatning eng koʻp tarqalgan, soʻzlar takroriga asoslangan turi. Bu sanʼatning mohiyati shunday: baytni boshlagan soʻz, uning oxirida ham takrorlanadi. Baytning birinchi misrasidagi birinchi rukn (yoki shu ruknning boshlanishi) sadr, keyingi misraning oxirgi rukni (yoki shu ruknning oxiri) esa ajuz deb yuritiladi. Shunga koʻra tasdirni mumtoz badiiylik ilmida **r a d d u l - s a d r i i l a l - a j u z** (sadrni ajuzda qaytarmoq) deb ham atashadi.

Bir qarashda tasdir juda sodda usul sifatida koʻrinsa-da, shoirlar uni turli maqsadlarda qoʻllar ekan, uning xilma-xil koʻrinishlarini va hatto aytish mumkinki, ancha murakkab turlarini ham kashf etishgan.

Men bu yuz mustoqidurmen, bogʻ-u boʻstonkim boʻlur,

Boʻlmasin nasrin-u lola, argʻuvon sizsiz **menga** . (Atoyi)

² Adabiyot. 10-sinf. «Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi». Davlat ilmiy nashriyoti .T. –2017

Tayyor qilib sipohi jarror

Jarrorliq ichra barcha **tayyor**. (A.Navoiy. “Hayrat ul-abror”)

Tasbe. Tasdirda birinchi misraning dastlabki so‘zi (yoki so‘zlari) ikkinchi misra oxirida takrorlansa, tasbeda birinchi misra oxiridagi so‘z keyingi misra boshida takrorlanadi.

Tasbening asosiy xususiyati shundaki, u kitobxon diqqatini fikr yuritayotgan obyektga markazlashtiruvchi linza vazifasini bajaradi. Chunki birinchi misra oxiridagi so‘zning keyingi misrani boshlashi beixtiyor kitobxon ongida ta’sir qo‘zg‘atadi va bu ta’sir kitobxonni shu so‘z ustida o‘ylashga majbur qiladi. Shuning uchun ham yetuk shoirlarning deyarli barchasi tasbe uchun baytdagi eng muhim so‘zlarni tanlaydi.

Kuchim yetguncha ko‘p qildim **vafolar**,

Vafoli qulni asrar podsholar (Xorazmiy)

Furqatingdin za’faron uzra to’karmen **lolalar**,

Lolalar ermaski, bag‘rimdin erur pargolalar. (Navoiy)

Alvon bila tok bargi **ra’no**

Ra’no kaf aro nigori hino . (A.Navoiy. “Hayrat ul-abror”)

Tayyor qilib sipohi **jarror**

Jarrorliq ichra barcha tayyor. (A.Navoiy. “Hayrat ul-abror”)

Tardi aks ham so‘z takroriga bag‘ishlangan lafziy san’atlardan hisoblanadi. Shuning uchun ham so‘zlar takroriga tayangan boshqa san’atlarga – tasdir, tasbe, ishtiyoqqa yaqin turadi. Bu yaqinlik tardi aksda ham so‘zlarning takrorlanishidir. Biroq shunga qaramay bu san’at ulardan tubdan farq qiladi. «Tard»ning ma’nosi «qaytarib berish», «qochirish», «uzoqlashtirish» demakdir. Aks esa «zid», «teskari», «chappa» ma’nolarini bildiradi. Yuqorida tasdir va tasbelarning xususiyatlari bilan tanishdik, shuning uchun ham bu yerda ularning tardi aksdan farqini izohlashga o‘rin yo‘q. Faqat bir narsani ta’kidlash muhimki, so‘zlar takroriga asoslangan san’atlarning hammasida ham takrorlangan so‘zlar oldingi tartibni saqlab qoladi. Faqat tardi aks va aks san’atlaridagina so‘zlarning birinchi joylashish tartibi keyingi misrada almashib keladi. Tardi aksda

takrorlangan soʻzlarning oʻrni qatʼiy emas, unda takrorlanayotgan soʻzlarning miqdori ikki yoki undan ortiq boʻlib, ular oʻrinlarini almashtirgan holda qoʻllangan boʻlishlari shartdir.³

Menga dushvor erur **sensiz** tirilmoq,

Senga men boʻlmasam, ey jon, ne gʻamdur.

Alisher Navoiyning “Koʻzing ne balo qaro boʻlubdur...” deb boshlanuvchi gʻazali boshdan oyoq tardi aks sanʼati asosiga qurilgan.

Koʻzing ne **balo qaro** boʻlubdur,

Kim jongʻa **qaro balo** boʻlubdur.

Majmuʼi **davoni dard** qildi,

Dardingki, manga **davo** boʻlubdur.

Ishq ichra oning **fidosi yuz jon**,

Har **jonki**, sango **fido** boʻlubdur

Takrir. Takrorga tayangan sheʼriy sanʼat. “Takrorlash” maʼnosini beradi.

Asosan takror baytdagi taʼkidni ifodalash uchun ishlatiladi. Yusuf Xos Hojib:

Qayusi qoʻpor, koʻr, **qayusi** qoʻnar

Qayusi chapor, koʻr **qayu** suv ichar” .⁴

Baytda ajratib koʻrsatilgan soʻzlar, asosan, soʻroq shaklning taʼkidiga sababchi boʻlyapti. Takrir misralarda bir soʻzning xohlagan oʻrinda takrorlanib kelishidir.

Mukarrar. Bu sanʼat “qayta-qayta”, “usti-usti” maʼnolarini beradi. Baytdagi soʻzning muayyan oʻrinda takrorlanib, juftlanib kelishidir. Bu sanʼat takrarga yaqin turadi. Har bir baytda juft soʻzlarning qoʻllanishi mukarrarga xos xususiyat. Quyida “Layli va Majnun” dostonidan olingan baytda koʻrishimiz mumkin:

Doʻstlar, men telba ahvoligʻa yigʻlang zor-zor

³ Adabiyot. 10-sinf. «Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi». Davlat ilmiy nashriyoti .T. –2017

⁴ Y.X. Hojib “Qutadgʻu biligʻ”

Kim, solodur gaz-gaz o't ko'nglumga tushgan xor-xor .

Rad ul-matla' (matla'ning qaytarilishi). Bu g'azalning misrasi to'la holda eng oxirgi misra o'rnida keladi.

Bizki bukun jahon aro kishvali faqir shohimiz,

Boshimiz uzra ohimiz shu'lasidir kulohimiz. (matla')

Ogahiy bo'lsa tong emas faqr eli gar mutemiz,

Bizki bukun jahon aro kishvali faqir shohimiz (maqta') . (Ogahiy)

Ashkima gar kanora yo'q bo'lmasa bo'lmasin netay,

Ohima gar shumora yo'q, bo'lmasa bo'lmasin netay(matla')

Dedim: O'lubtur Ogahiy aksi kanorasiz , Dedi

Ashkima gar kanora yo'q bo'lmasa bo'lmasin netay. (maqta').

Sochining savdosi tushdi boshima boshdin yana,

Tiyr bo'ldi ro'zg'orim ul qaro qoshdin yana. (matla')

Oyog'im yetguncha Boburdek ketar erdim vale,

Sochining savdosi tushdi boshima boshdin yana. (maqta'). (Bobur).

Kim ko'rubdur, ey ko'ngul, ahli jahondin yaxshilig',

Kimki, ondin yaxshi yo'q, ko'z tutma ondin yaxshilig'. (matla')

Yaxshilig' ahli jahonda istama Bobur kibi,

Kim ko'rubdur, ey ko'ngul, ahli jahondin yaxshilig'? (maqta').
(Bobur).

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, shoirlarimiz ijodidagi badiiy san'atlar har tomonlama mukammal, o'zining badiiy nafosati bilan , xilma-xil ifoda usullari bilan berilgani-o'zbek tilimizning g'oyatda boyligi va go'zalligini, shuningdek nozik va teranligini yorqin hamda jonli lavhalarda ifodalashini ko'rsatib turibdi. Bularni chuqur o'rganish yangi O'zbekistonimizning yosh mutaxassislari uchun nihoyatda zarur deb bilaman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yusupova D. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Akademnashr, - T., 2013.
2. Yusupova D. Alisher Navoiy “Xamsa”sida mazmun va ritmning badiiy uyg‘unligi. Mumtoz so‘z, - T., 2011
3. Hojiahmedov A. She’riy san’atlar va mumtoz qofiya, Sharq, - T., 1998
4. Qayumov A. Asarlar. 3jild, Mumtoz so‘z, -T., 2009.